
BITIRUVCHILARGA DIPLOM TOPSHIRILDI

Oltiariq pedagogika kollejining bitiruvchilariga diplom topshirish marosimi o'tkazildi.



Marosimda tuman hokimi Sh.Turdaliyev, 3-sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i M.Qunduzov, kollej o'qituvchilari va o'quvchilari, bitiruvchilarning ota-onalari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan tuman hokimi bitiruvchilarni diplom olish baxtiga erishganliklari bilan samimiy qutlab, ularning turli oliy o'quv yurtlarida o'qishlari, turli idoralarda ishlashlari va mustaqil hayotda o'z o'rinlarini topishlariga tilaklar bildirdi.

Shundan so'ng, bitiruvchilarga diplomlar tantanali ravishda topshirildi.

Kollejda o'quv yili jarayonida yutuqlarga erishgan, o'zlarining intizomi va bilimga chanqoqligi bilan ajralib turgan bitiruvchilar hamda ularga ta'lim berishda o'zlarining munosib hissasini qo'shgan bir guruh fidoiy ustozlarga kollej ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq hamda tashakkurnomalar topshirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-07 14:42:00